


### XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi<sup>1)</sup> 2022 yil mart oyida 3201,0 ming so‘mni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 13,1 foizga o‘ydi.

Yanvar – mart oylarida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o‘ishi iqtisodiy faoliyat turlarining bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida (2,0 marta ko‘p), tashish va saqlash sohasida (160,8 foizga), axborot va aloqa sohasida (129,4 foizga), kuzatildi.

O‘rtacha ish haqining yuqori miqdori iqtisodiy faoliyat turlarining bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatida 6951,6 ming so‘m (viloyat bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,0 marta ko‘p), tashish va saqlashda 4759,4 ming so‘m (160,8 foizga), axborot va aloqa sohasida 3830,5 ming so‘m (129,4 foizga), sanoatda sohasida 3809,8 ming so‘m (128,7 foizga) kuzatildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(2022 yil yanvar-mart)



<sup>1)</sup> Bu yerda va keyingi o'rinlarda dastlabki ma'lumotlar, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlarisiz, qayta hisoblangan.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha  
oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(qishloq xo'jalikligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

(ming so'm)

	<i>Yanvar-mart</i>		<i>Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, foiz</i>	
	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>
<b>Jami viloyat bo'yicha</b>	<b>2 610,8</b>	<b>2 959,1</b>	<b>x</b>	<b>x</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	3 166,3	3 809,8	121,3	128,7
Qurilish	3 036,1	2 902,7	116,3	98,1
Savdo	2 064,6	2 358,9	79,1	79,7
Tashish va saqlash	4 120,4	4 759,4	157,8	160,8
Axborot va aloqa	2 420,8	3 830,5	92,7	129,4
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	5 227,0	6 951,6	2,0 m.	2,3 m.
Ta'lim	2 140,8	2 355,3	82,0	79,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy hizmatlar ko'rsatish	2 198,7	2 333,5	84,2	78,9
Boshqa faoliyat turlari	2 447,7	3 063,1	93,8	103,5



**Ta'lim sohasida** ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 355,3 ming so'mni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 110,0 foizga o'sdi.

Ta'lim sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini Viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori, Buxoro shahrida 3 122,5 ming so'mni viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan (132,6 foiz), Qorovulbozor tumanida 2 794,6 ming so'mni (118,7 foiz) va Kogon shahrida 2 484,5 ming so'mni (105,5 foiz) tashkil etgan bo'lsa, Kogon tumanida 1 996,6 ming so'mni (84,8 foiz), Peshko'tumanida 1 951,9 ming so'mni (82,9 foiz) Vobkent tumanida 1 782,7 ming so'mni (75,7 foiz), tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



**Sanoat** sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2358,9 ming so'mni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 114,3 foizga ko'paydi.

Sanoat sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Qorovulbozor tumanida 6173,6 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,0 marta), Shofirkon tumanida 5289,7 ming so'mni (224,2 foiz) tashkil etgan bo'lsa, Jondor tumanida 2214,5 ming so'mni (93,9 foiz) va Buxoro tumanida 1940,6 ming so'mni (82,3 foiz) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



**Qurilish sohasida** ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2902,7 ming so'mni, 2021 yilning mos davriga nisbatan 95,6 foizni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Qorovulbozor tumanida 3271,9 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 112,7 foiz) bo'lsa, Kogon tumani 2992,5 ming so'mni (103,1 foiz) tashkil etgan bo'lsa, Buxoro tumanida 2576,3 ming so'mni (88,8 foiz), Buxoro shahrida 2431,8 ming so'mni (83,8 foiz), Romitan tumanida 2393,6 ming so'mni (82,5 foiz) boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida** ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2333,5 ming so'mni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 106,1 foizni tashkil etdi.

Mazkur sohalardagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Qorovulbozor tumanida 2907,5 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 124,6 foiz), Kogon shahrida 2507,5 ming so'mni (107,5 foiz), Olot tumanida 2504,9 ming so'mni (107,3 foiz) tashkil etgan bo'lsa, Qorako'l tumanida 2035,9 ming so'mni (87,2 foiz), Vobkent tumanida 1903,8 ming so'mni (81,6 foiz), Buxoro tumanida 1796,8 ming so'mni (77,0 foiz), tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



**Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida** ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 6951,6 ming so'mni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 133,0 foizga o'sdi.



**O'rtacha oylik ish haqi** ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, eng yuqori miqdori Qorovulbozor tumanida 4505,1 ming so'mni viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan (152,2 foiz), Kogon shahrida 4247,4 ming so'mni (143,5 foiz), Buxoro shahrida 3338,5 ming so'mni (112,8 foiz) etgan bo'lsa, Shofirkon tumanida 2277,1 ming so'mni (77,0 foiz), Peshko' tumanida 2164,0 ming so'mni (73,1 foiz), Vobkent tumanida 2001,8 ming so'mni (67,6 foiz) tashkil etib boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

O'rtacha oylik ish haqining eng past ko'rsatkichlari Vobkent (2001,8 ming so'm) va Peshko' (2164,0 ming so'm) tumanlarida kuzatildi. Bu tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichlari viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan mos ravishda kam bo'lgan.

## Buxoro viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(qishloq xo'jalikligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

(ming so'm)

	<i>Yanvar- mart</i>		<i>Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, foiz</i>	
	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>2 610,8</b>	<b>2 959,1</b>	<b>x</b>	<b>x</b>
Buxoro sh.	2 792,0	3 338,5	106,9	112,8
Kogon sh.	3 857,1	4 247,4	147,7	143,5
<i>tumanlar</i>				
Buxoro	2 379,4	2 291,8	91,1	77,4
Vobkent	1 778,3	2 001,8	68,1	67,6
Jondor	2 205,4	2 281,8	84,5	77,1
Kogon	2 412,5	2 361,9	92,4	79,8
Olot	2 147,1	2 568,5	82,2	86,8
Peshko'	1 934,3	2 164,0	74,1	73,1
Romitan	2 410,1	2 841,1	92,3	96,0
Shofirkon	2 069,3	2 277,1	79,3	77,0
Qorako'l	1 903,5	2 292,2	72,9	77,5
Qorovulbozor	3 900,1	4 505,1	149,4	152,2
G'ijduvon	2 110,1	2 328,7	80,8	78,7